Ўзбекистон Республикаси бюджет тизими
бюджетларининг ғазна ижроси қоидаларига
8-ИЛОВА

**06.12.2022 даги**

**"IM IMPERIAL TORG" МЧЖ ва Гулистон тумани Ободонлаштириш бошқармаси ўртасида 28035000,00 сўм умумий суммага тузилган №543-9-124-OB/2022 - сонли шартномага**

## ТЎЛОВЛАР ЖАДВАЛИ*

Боб 110

Шахсий ғазна ҳисобварақ 100022860242207065200110001

сўмда

| 2022 й. ойлар номи. | Харажатлар тури** (бюджет таснифининг тегишли коди) | | | Жами |
|---|---|---|---|---|
| | 4252200 | | | |
| Январь | | | | |
| Февраль | | | | |
| Март | | | | |
| Апрель | | | | |
| Май | | | | |
| Июнь | | | | |
| Июль | | | | |
| Август | | | | |
| Сентябрь | | | | |
| Октябрь | | | | |
| Ноябрь | | | | |
| Декабрь | 28 035 000,00 | | | 28 035 000,00 |
| **Жами йил бўйича** | **28 035 000,00** | | | **28 035 000,00** |

Жами 28035000,00 сўм Йигирма саккиз миллион ўттиз беш минг сўм 00 тийин

сумма сўз билан

Юқоридаги кўрсатилган суммадан 8410500,00 сўм ёки 30,00%*** шартноманинг умумий суммасидан ______ % ***20___ ______________ ойида тўланиши лозим.

(*) — бюджет ташкилоти, бюджет маблағи олувчи ва БМЖ маблағи олувчи томонидан ғазначилик бўлинмасига икки нусхада тақдим этилади;

(**) — бўлим, кичик бўлим ва харажат моддаси кўрсатилади;

(***) — Юқоридаги кўрсатилган суммадан ойига ______% жорий ойининг _____ санасигача хар ойда олдиндан тўланиши лозим (ушбу сатр бюджет ташкилоти, бюджет маблағи олувчи ва БМЖ маблағи олувчи томонидан коммунал хизматлар кўрсатиш, алоқа хизматлари ва қонун ҳужжатларида назарда тутилган ҳар ой доимий равишда товарлар (ишлар, хизматлар) етказиб бериш шартномалари бўйича олдиндан тўловни амалга ошириш ҳолларида тўлдирилади).

Буюртмачи раҳбари ____________________ Муратиллаев Батир Абдураззакович
(имзо) Ф.И.Ш.

М.Ў.

Буюртмачи бош бухгалтери ____________________ Гаффаров Тургун Разакович
(имзо) Ф.И.Ш.

Ғазначилик бўлинмасининг
ходими қабул қилди ____________________
(имзо)

«___» ________________ 20___й.

Буюртмачи ходими
қабул қилди ____________________
(имзо)

«___» ________________20___й.

# OLDI-SOTDI SHARTNOMASI

6«12»2022 yil. **543-9-124-OB/2022-son**

Guliston tuman obodonlashtirish boshqarmasi nomidan nizom asosida ish yurituvchi B.Murotillaev bir tomondan (bundan buyon matnda "Buyurtmachi" deb yuritiladi) hamda "LM IMPERIAL TORG" MCHJ nomidan nizom asosida ish yurituvchi A.Matqulov ikkinchi tomondan (bundan buyon matnda "Bajaruvchi" deb yuritiladi) quyidagilar haqida mazku shartnomani tuzdik:

## I. SHARTNOMA PREDMETI

1."Bajaruvchi" ushbu shartnomaga muvofiq Guliston tumani Obodonlashtirish boshqarmasi xodimlari uchun maxsus kiyimlar etkazib berish majburiyatini oladi, "Buyurtmachi" ushbu xizmatlarni va tovarlarni qabul qilish va haqini to'lash majburiyatini oladi. Ko'rsatiladigan xizmatlarning qat'iy turlari, miqdori va bahosi ushbu shartnomada keltiriladi.

## II. TOMONLARNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

2.1 Buyurtmachining xuquqlari:

- bajaruvchidan texnik shartlarga lozim darajadagi xizmatlarni ko'rsatishni talab qilish;
- lozim darajadagi sifatda xizmat ko'rsatilmagan taqdirda, o'z xohishiga ko'ra quyidagilarni talab qilish:
- kamchiliklarni bepul bartaraf etish yoki Buyurtmachining yoki uchinchi shaxsning kamchiliklarni bartaraf etishga doir xarajatlarini qoplash;
- bahosini mutanosib ravishda pasaytirish;
- shartnoma shartlarining bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi natijasida etkazilgan zararni qoplashni talab qilish.

2.2 Buyurtmachining majburiyatlari:

- ushbu SHartnoma shartlariga muvofiq ko'rsatilgan xizmatlarni qabul qilish;
- ushbu SHartnomaning 3.1 va 3.2-bandlariga muvofiq ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarni amalga oshirish.

2.3 Bajaruvchining huquqlari:

- buyurtmachidan amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda va hajmda ko'rsatilgan xizmatlar uchun oldindan to'lov va yakuniy hisob-kitoblarni amalga oshirishni talab qilish;
- buyurtmachidan bajarilgan ishni qabul qilishni asossiz ravishda rad etish natijasida etkazilgan zararni qoplashni talab qilish;

2.4 Bajaruvchining majburiyatlari:

- ushbu shartnomaga muvofiq yoki Buyurtmachining ushbu shartnomaning 4.8-bandida belgilangan tartibda u tomonidan taqdim etilgan texnik topshiriqqa binoan xizmatlarni belgilangan muddat, miqdor va sifatlar bo'yicha ko'rsatish;
- agar xizmat ko'rsatish jarayonida Bajaruvchi shartnoma shartlaridan va texnik shartlardan chetga chiqsa, Buyurtmachining talabiga binoan uch kun ichida aniqlangan barcha kamchiliklarni bepul bartaraf etish.

## III. SHARTNOMA BAHOSI VA XISOB-KITOB QILISH TARTIBI

| № | Mahsulot nomi | O'lchov birligi | miqdori | narxi | Summasi | QQS 15% | Summa QQS bilan |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Maxsus kiyimlar erkaklar va ayyolar uchun razmer 48-60 | komplekt | 63 | 445000 | 24378260.87 | 3656739.13 | 28035000 |

3.1 Ushbu shartnomaning bahosi **28035000** ***(Yigirma sakkiz million o'ttiz besh ming) so'm, QQS bilan.*** Ko'rsatiladigan xizmatlarning bahosi ushbu shartnomaning ilovasida ko'rsatiladi.

3.2 Buyurtmachi taqdim etiladigan xizmatning 30 foizi miqdorida oldindan to'lovni amalga oshiradi va mablag' Bajaruvchining hisobraqamiga kelib tushgan sanadan boshlab ushbu shartnomaning majburiyatlari bajarilishi boshlanadi.Ko'rsatilgan xizmatlar uchun hisob-kitobning qolgan qismi bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnoma imzolanganidan keyin uch ish kuni ichida amalga oshiriladi.

3.3 Xizmatlar bo'yicha hisob-kitoblar bank o'tkazmasi orqali Bajaruvchining hisob raqamiga o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

## IV. SHARTNOMANI BAJARISH

4.1 Shartnoma shartlari ushbu shartnoma va qonun hujjatlari talablariga muvofiq belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Agar tomonlar o'z zimmalariga olgan barcha majburiyatlarning bajarilishini ta'minlagan bo'lsa, shartnoma bajarilgan deb hisoblanadi.

4.2 SHartnomani bajarishdan bir tomonlama rad etishga yoki shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi, qonunchilikda belgilangan hollar bundan mustasno.

4.3 SHartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishi sanasi hisobvaraq-faktura tuzilgan kun deb hisoblanadi.G'aznachilik shtampida ko'rsatilgan sana Buyurtmachining xizmatlar uchun to'lovlarni to'lash bo'yicha majburiyatlarini bajaradigan kun hisoblanadi. Ishlarning bajarish muddati 5 kunni tashkil etadi

4.4 Buyurtmachining roziligi bilan xizmatlar muddatidan oldin taqdim etilishi mumkin.

4.5 Buyurtmachi belgilangan muddatlarni buzgan holda ko'rsatilgan xizmatni qabul qilishni rad etishga haqlidir.

4.6 Belgilangan miqdordan ortiq bitta nomdagi xizmatni ko'rsatish xuddi shu texnik topshiriqqa kiritilgan boshqa nomdagi xizmatning kamchiliklarini to'ldirish deb hisoblanmaydi, kamchiliklar to'ldirilishi lozim, Buyurtmachining oldindan yozma roziligi bilan amalga oshiriladigan holatlar bundan mustasno.

4.7 Ko'rsatilayotgan xizmat to'g'ridan-to'g'ri Buyurtmachining mas'ul xodimlari tomonidan taqdim etilayotgan xizmatlar hajmi, ularning sifati ko'rsatilgan hisobvaraq-faktura bo'yicha qabul qilinadi.SHartnomada nazarda tutilgan xizmatlar ushbu shartnomaga muvofiq yoki ushbu shartnomada belgilangan muddatlarda va hajmlarda amalga oshiriladi.Buyurtma bevosita (qo'lda), pochta orqali yoki boshqa usul bilan xizmatlarni ko'rsatish nazarda tutilayotgan sana boshlanishidan besh kundan kechiktirmay taqdim etiladi. Buyurtma bevosita (qo'lda) qabul qilganda, Bajaruvchining xodimi Buyurtmachida qoladigan buyurtma nusxasida qabul qilinganligi to'g'risida belgi qo'yadi.

4.8 Buyurtmachi ilgari berilgan buyurtmani bekor qilishga yoki xizmatlarning tegishli qismini ko'rsatish sanasini Bajaruvchini buyurtmada ko'rsatilgan sanadan kamida bir kun oldin xabar bergan holda o'zgartirishga haqli.

## V. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

5.1 Taqdim etilayotgan xizmatlarning sifati, miqdori, ularning bahosi Bajaruvchi tomonidan noto'g'ribelgilanganlik holati aniqlangan taqdirda, Bajaruvchi taqdim etilayotgan xizmatlarning sifatini, shuningdek ularning miqdorini hisobga olgan holda qayta hisob-kitob ishlarini amalga oshiradi va ushbu hisoblangan summaga qo'shimcha ravishda mijozga noto'g'ri hisoblangan summaning 20% miqdorida jarima to'laydi.

5.2 Agar taqdim etilayotgan xizmatlarning sifati shartnomada ko'rsatilgan texnik va boshqa shartlarning talablariga javob bermasa, aybdor tomon taqdim etilgan sifati lozim darajada bo'lmagan xizmatlar bahosining 20% miqdorida jarima to'laydi.

5.3 Jarima va penyadan tashqari, Bajaruvchi Buyurtmachiga xizmatlarni taqdim etmaslik natijasida etkazilgan zararni qoplaydi.

5.4 Xizmatlar kechiktirilgan yoki ko'rsatilmagan taqdirda, Bajaruvchi Buyurtmachiga har bir kechiktirilgan kun uchun majburiyatning bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, ammo jarimaning umumiy miqdori ko'rsatilmagan xizmatlar bahosining 50 foizidan oshmasligi kerak. Penyani to'lash shartnoma majburiyatlarini buzgan tomonni shartnomani to'g'ri bajarishdan va xizmatlarni kechiktirish yoki ko'rsatmaslik oqibatida etkazilgan zararni qoplashdan ozod qilmaydi. 5.5 Ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovni o'z vaqtida to'lamagan taqdirda, Buyurtmachi Bajaruvchiga har bir kechiktirilgan kun uchun muddati o'tgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, lekin muddati o'tgan to'lov miqdorining 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

5.6 Buyurtmachi shartnomaning tegishli shartini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun javobgarlikka tortilganda, tegishli harakat (harakatsizlik) natijasida Buyurtmachi tomonidan shartnoma shartlari bajarilmaganligi (lozim darajada bajarilmaganligi) yuzasidan Bajaruvchining javobgarligi ham ko'rib chiqiladi.Buyurtmachining Bajaruvchi aybi bilan shartnomani bajarmaganligi (lozim darajada bajarilmaganligi) natijasida etkazilgan zarar, belgilangan tartibda Bajaruvchi tomonidan qoplanadi.

5.7 Tomonlarning ushbu shartnomada ko'zda tutilmagan javobgarlik masalalari O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq hal qilinadi.

## VI. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

6/1 Tomonlar o'rtasida ushbu kelishuvdan kelib chiqadigan nizolar tomonlar o'rtasida muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi.

6.2 Tomonlar o'rtasidagi muzokaralar yo'li bilan hal qilinmagan nizolar Sirdaryo viloyati tumanlararo iqtisodiy sudida hal qilinadi.

## VII. FORS-MAJOR HOLATLARI

7.1 Agar ushbu shartnoma tuzilgandan so'ng, ushbu shartnomada belgilangan majburiyatlarning biron bir tomonini to'liq yoki qisman to'g'ri bajarishiga to'sqinlik qiladigan holatlar yuzaga kelsa va agar bunday holatlar, ya'ni yong'in, toshqin, zilzila, boshqa tabiiy ofatlar, eksport yoki importga to'siqlar yoki embargolar, urush, jangovar harakatlar, terroristik harakatlar, ish tashlashlar (tomonlar ishchilarining ish tashlashlaridan tashqari), pandemiya, amaldagi qonunchilikdagi o'zgarishlar, davlat organlari va O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan qabul qilingan umumiy xarakterdagi qarorlar tomonlarning shartnoma shartlarini bajarishiga bevosita ta'sir qilsa, tegishli majburiyatlarning bajarilishi vaqti bunday holatlar bartaraf etilgan vaqtga yoki ularning oqibatlari tugashi vaqtiga ko'chiriladi.

7.2 Fors-major holatlari yuzaga kelgan Tomon, ushbu holat haqida shuningdek, holatning taxminiy davomiyligi to'g'risida boshqa Tomonni yozma ravishda 7 (etti) kun ichida xabardor qilishi shart. Agar yuqorida ko'rsatilgan holatlar to'g'risida o'z vaqtida xabar berilmagan bo'lsa, engib bo'lmas kuch ta'sirida zarar etkazilgan Tomon ushbu holatlarni asos qilib ololmaydi.

7.3 Xabarnomada ko'rsatilgan faktlar rasmiy manbalar tomonidan berilgan hujjatlar bilan tasdiqlanishi kerak, shu jumladan, press-relizlar, biroq ular bilan cheklanmaslik lozim. Bunday xabarnomaning yo'qligi, shuningdek tegishli dalillarning yo'qligi ushbu tomonni shartnoma majburiyatlarini bajarishdan ozod qilinishiga asos sifatida yuqoridagi holatlarni keltirish huquqidan mahrum qiladi.

7.4 Favqulodda vaziyatlar yuzaga kelgan taqdirda, tomonlar zudlik bilan o'zaro muzokaralar olib boradilar va favqulodda vaziyatlar oqibatlarini bartaraf etish yoki bartaraf etish maqsadida ko'riladigan choralar to'g'risida kelishib oladilar.

7.5 Agar fors-major holatlari yoki ularning oqibatlari tomonlarning o'z majburiyatlarini bajarishiga to'sqinlik qiladigan bo'lsa, tomonlarning har biri boshqa tomonga ushbu shartnomani bekor qilishning kutilayotgan sanasidan 10 (o'n) ish kuni oldin yozma ravishda xabar yuborganidan keyin ushbu shartnomani bekor qilish huquqiga ega. Bunday holda tomonlarning hech biri boshqa tomondan fors-major holatlari natijasida etkazilgan zararni qoplashni talab qilishga haqli emas. SHuningdek, Bajaruvchi bajarilmagan majburiyatlari uchun Buyurtmachidan olingan barcha to'lovlarni Buyurtmachiga qaytaradi va Buyurtmachi Bajaruvchining bajarilgan barcha majburiyatlarini to'liq to'laydi.

## VIII. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH

8.1 Ushbu SHartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda Tomonlar, ularning sheriklari, ishchilari yoki vositachilari har qanday noqonuniy ustunliklarga yoki boshqa noqonuniy maqsadlarga erishish uchun bevosita yoki bilvosita pul mablag'lari yoki qimmatliklarni to'lashni amalga oshirmaydi.

8.2 Ushbu SHartnoma majburiyatlarini bajarayotganda Tomonlar, ularning sheriklari, ishchilari yoki vositachilari pora berish/olish, tijoriy pora olish, shuningdek amaldagi qonunchilik va xalqaro hujjatlarning talablarini buzadigan harakatlarni amalga oshirmaydilar. Jinoiy yo'l bilan topilgan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishga oid xalqaro hujjatlar talablarini buzilishi kabi harakatlarni amalga oshirmaydi.

8.3 Ushbu SHartnoma Tomonlarining har biri boshqa Tomonning xodimlarini har qanday tarzda rag'batlantirishdan, shu jumladan pul mablag'lari, sovg'alar berish, ularga ish (xizmatlar)ni bepul bajarishi va ushbu bandda ko'rsatilmagan boshqa usullar bilan xodimning rag'batlantiruvchi tomon foydasiga har qanday harakatlarni sodir etishdan bosh tortadi.

• Xodimning uni rag'batlantiruvchi tomon foydasiga amalga oshirgan harakatlari deganda quyidagilar tushuniladi:

• boshqa kontragentlar bilan taqqoslaganda asossiz ustunliklarni taqdim etish;

• har qanday kafolatlar bilan ta'minlash;

• amaldagi tartib-taomillarni tezlashtirish;

• xodim tomonidan o'z vazifalari doirasida amalga oshiriladigan, ammo Tomonlar o'rtasidagi munosabatlarning shaffofligi va ochiqligi tamoyillariga zid bo'lgan boshqa harakatlar.

8.4 Agar Tomonlardan biri mazkur shartnomaning 2-ilovasida keltirilgan korrupsiyaga qarshi kurashish shartlarini buzgan yoki buzishi mumkin deb gumon qilsa, ikkinchi Tomonni yozma ravishda xabardor qilishga majbur. YOzma xabarnomadan so'ng, tegishli Tomon ushbu SHartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishini buzilish sodir bo'lmaganligi yoki sodir bo'lmasligi tasdiqlangunga qadar to'xtatib turishga haqli. Ushbu tasdiq yozma xabarnoma yuborilgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida yuborilishi kerak.

8.5 YOzma xabarnomada Tomon kontragent, uning sheriklari, ishchilari yoki vositachilari tomonidan ushbu shartlar va qoidalarning buzilganligi yoki buzilishi mumkinligini ishonchli tarzda tasdiqlaydigan yoki asoslashi mumkin bo'lgan faktlarga tayanishi yoki tegishli materiallarni taqdim etishga majbur, ya'ni pora olish/berish, tijoriy pora olish, shuningdek amaldagi qonunchilik va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurash bo'yicha xalqaro hujjatlar talablarini buzadigan harakatlar asoslantirilishi lozim.

8.6 SHartnomaning taraflari korrupsiyaning oldini olish choralarini ko'rish tartib-taomillarini tan oladi va ularga rioya etilishini nazorat qiladi. Bunda Tomonlar korrupsiyaviy faoliyat bilan shug'ullanishi mumkin bo'lgan kontragentlar bilan ishbilarmonlik munosabatlari xavfini minimallashtirish, shuningdek, korrupsiyaning oldini olish maqsadida bir-biriga o'zaro yordam berish uchun oqilona harakatlarni amalga oshiradilar. SHuningdek, Tomonlar korrupsiyaviy faoliyatga Tomonlarning ishtiroki xavfini oldini olish maqsadida tekshiruvlar o'tkazish tartib-taomillarini amalga oshirilishini ta'minlaydilar.

8.7 Tomonlar o'zlarining sodir etilishi mumkin bo'lgan noqonuniy xatti-harakatlari va ushbu SHartnomaning korrupsiyaga qarshi kurashish shartlarining buzilishi kontragentning ishonchliligi reytingini pasaytirishidan tortib ushbu shartnomaning bekor qilinishigacha bo'lgan noxush oqibatlarga olib kelishi mumkinligini tan oladi.

8.8 Tomonlar maxfiylik tamoyillariga rioya qilgan holda ushbu SHartnomani bajarish doirasida keltirilgan faktlar bo'yicha tegishli tartib-taomillar amalga oshirilishini va amaliy qiyinchiliklarni bartaraf etish va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizoli vaziyatlarning oldini olish bo'yicha samarali choralarni qo'llashni kafolatlaydilar.

8.9 Tomonlar ushbu SHartnomaning korrupsiyaga qarshi kurashish shartlarini bajarish bo'yicha to'liq maxfiylikni, shuningdek, talablar buzilganligi faktlari to'g'risida xabar bergan Tomon uchun ham, shuningdek, xabar bergan Tomonning xodimlari uchun ham salbiy oqibatlar keltirmasligini kafolatlaydilar.

## IX SHARTNOMANING AMAL QILISHI

9.1 Ushbu shartnoma Tomonlar imzolagan kundan boshlab kuchga kiradi va 2022-yil 31-dekabrgacha amal qiladi.

9.2 Tomonlar o'rtasidagi munosabatlar ushbu shartnomaning barcha shartlari bajarilganda va hisob-kitoblar to'liq amalga oshirilganda tugaydi.

## X. YAKUNIY QOIDALAR

10.1 Ushbu SHartnoma tomonlarning kelishuvi bilan yoki Tomonlardan birining talabiga binoan, boshqa tomon tomonidan shartnoma shartlari sezilarli darajada buzilgan taqdirda sud tomonidan bekor qilinishi mumkin.

10.2 Ushbu shartnomaga kiritilgan har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar faqat yozma ravishda tuzilgan va taraflarning tegishli vakolatli vakillari tomonidan imzolangan taqdirda amal qiladi.

10.3 Ushbu shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzildi.

10.4 Ushbu shartnoma, unga kiritilgan o'zgartirishlar (qo'shimchalar) tomonlar tomonidan imzolangan paytdan boshlab oshiriladi.

## XI. TOMONLARNING REKVIZITLARI VA IMZOLARI

Bajaruvchi: "LM IMPERIAL TORG" MCHJ
Guliston shaxar Abdullayev ko'chasi
R/s:20208000900706796001
Bank Xalq Bank Sirdaryo viloyat f.
MFO: 00759 INN:304531318
OKED:

Buyurtmachi: Guliston tuman
Obodonlashtirish boshkarmasi
R/s: 000228602422070652001100001
Bank rekvizitlari: Toshkent shaxar
markaziy bank MFO: 00014
INN: 206946387 OKED: 70210

Bajaruvchi:

Direktor_________A.Matqulov

Buyurtmachi:

Boshliq:_________B.Muratillaev

| | Hujjat elektron raqamli imzo orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun QR Code ni skanerlang. | |
|---|---|---|
| | Imzolovchi F.I.SH. | BATIR MURATILLAYEV ABDURAZZAKOVICH |
| | Imzolangan sana | 06.12.2022 10:06 |
| | Hujjat kodi | SJ6438676261 |
| | Hulosa kodi | WB0202006665 |

0010

# Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida

## GUVOHNOMA

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

"LM IMPERIAL TORG" Mas'uliyati cheklangan jamiyat

(Yuridik shaxsning – tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holdagi to'liq nomi)

"LM IMPERIAL TORG" MChJ

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

13.01.2017    10    ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(so'z bilan), yil):

Soliq to'lovchining identifikasiya raqami (STIR): 304531318

Tashkiliy-huquqiy shakli: Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Joylashgan joyi: Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, Abdullayev ko'chasi, 125-uy,

Guvohnoma: Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, DAVLAT XIZMATLARI MARKAZI tomonidan berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SIRDARYO VILOYATI GULISTON SHAHRI "LM IMPERIAL TORG" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI
LM

IJRO.GOV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Ҳужжат коди: WB0202006665

# YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

WB0202006665

1. Loyihaning turi : Shartnoma

2. Loyihaning nomi: **48-60 o'lchamdagi erkaklar va ayollar uchun maxsus kiyimlarlar xarid qilish to'g'risida**

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Guliston tumani hokimiyati obodonlashtirish bo'limi tomonidan 06.12.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Guliston tuman yuridik markazi bosh yuristkonsulti:**

**D.I.ABDULLAYEV**

06.12.2022-yil.

# Протокол закупочной комиссии по отбору наилучшего предложения лот № 195650 на приобретение Махсус кийимлар харид қилиш учун

Способ проведения электронный

Дата 01.12.2022

Время рассмотрения 01.12.2022 11:26

Закупочная комиссия Гулистон тумани кошидаги Ободонлаштириш бошкармаси, (Далее – Комиссия) в составе:

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Председатель комиссии** | MURATILLAYEV BATIR ABDURAZZAKOVICH | Гулистон тумани Ободонлаштриш бошкармаси бошлиги | Комиссия раиси |
| **Секретарь комиссии** | DJANTURAYEV ABDUKARIM KAYUMOVICH | Texnik nazoratchi | Komissiya kotibi |
| **Член комиссии** | ELTAYEV KULDASH XUDAYBERDIYEVICH | Bosh muhandis | Komissiya raisi o'rinbosari |
| **Член комиссии** | G'AFFAROV TURG'UN RAZAQOVICH | Bosh hisobchi | Komissiya a'zosi |
| **Член комиссии** | XATAMOV BAXTIYOR KUDRATOVICH | OOSB boshlig'i | Komissiya a'zosi |
| **Член комиссии** | MAMATOV MAMADALI KARSHIBAYEVICH | Mexanik | Kamissiya a'zosi |

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 01.12.2022 года № лота 195650.
Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 90.00 / Весовой коэф. ценовой части: 10.00)

Мин. балл: 75

Предмет закупки:

| **Наименование товара (работы, услуги)** | **Одежда специальная для защиты от пониженных температур** |
|---|---|
| Подробное описание | Махсус кийим Эркакларники 48-60 размерлар |
| Количество товара | 38.00 |
| Единица измерения | |
| Цена товара (услуги) за единицу | 450 000.00 |
| Стартовая сумма | 17 100 000.00 |
| Валюта | UZS |

| **Наименование товара (работы, услуги)** | **Одежда специальная для защиты от пониженных температур** |
|---|---|
| Подробное описание | Махсус кийим Эркакларники 48-60 размерлар |
| Количество товара | 25.00 |
| Единица измерения | |
| Цена товара (услуги) за единицу | 450 000.00 |
| Стартовая сумма | 11 250 000.00 |
| Валюта | UZS |

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Антикоррупцион хат

Тип: Текстовое значение

Описание: Антикоррупцион хат

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| OOO LM IMPERIAL TORG | 20 | 20 | 20 | Экспертная | | |
| BUYUK-ORZULAR-SIRI MCHJ | 20 | 20 | 15 | Экспертная | | |

Критерий №2 Етказиладиган махсулотлардан харид комиссияси учун тақдим қилиш

Тип: Текстовое значение

Описание: Етказиладиган махсулотлардан харид комиссияси учун тақдим қилиш

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| OOO LM IMPERIAL TORG | 20 | 20 | 14 | Экспертная | | |
| BUYUK-ORZULAR-SIRI MCHJ | 20 | 20 | 1 | Экспертная | | |

Критерий №3 Энг яхши таклиф иштирокчисининг Солиқ ва бошқа мажбурий тўловлардан қарзи йўқлиги тўғрисида маълумотнома

Тип: Текстовое значение

Описание: Энг яхши таклиф иштирокчисининг Солиқ ва бошқа мажбурий тўловлардан қарзи йўқлиги тўғрисида маълумотнома

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| OOO LM IMPERIAL TORG | 20 | 20 | 20 | Экспертная | | |
| BUYUK-ORZULAR-SIRI MCHJ | 20 | 20 | 20 | Экспертная | | |

Критерий №4 Умумий маълумотлар

Тип: Текстовое значение

Описание: Энг яхши таклиф иштирокчиси ҳақида умумий маълумотлар(Гувохнома, устав)

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **ООО** LM IMPERIAL TORG | 20 | 20 | 20 | Экспертная | | |
| BUYUK-ORZULAR-SIRI MCHJ | 20 | 20 | 20 | Экспертная | | |

Критерий №5 Кафолат хати

Тип: Текстовое значение

Описание: Махсулотларни ўз вақтида сифатли етказишга кафолат хати

Обязательность: Критично

| Наименование участника | Макс балл | Значение участника | Балл участника | Тип оценки | Примечание | Причина |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **ООО** LM IMPERIAL TORG | 20 | 20 | 18 | Экспертная | | |
| BUYUK-ORZULAR-SIRI MCHJ | 20 | 20 | 20 | Экспертная | | |

Оценка участников финансовой части составила:

| Наименование участника | Стартовая сумма | Предлагаемая сумма | Сумма с учетом конвертации (UZS) | Применение преференции | Общее значение (UZS) | Дата предложения | Оценка стоимости (балл) |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| **ООО** LM IMPERIAL TORG | 28 350 000.00 | 28 035 000.00 UZS | 28 035 000.00 | 00.00 | 28 035 000.00 | 30.11.2022 09:57:19 | 10 |
| BUYUK-ORZULAR-SIRI MCHJ | 28 350 000.00 | 28 181 000.00 UZS | 28 181 000.00 | 00.00 | 28 181 000.00 | 30.11.2022 10:01:19 | 9.94819 |

Итоговая оценка участников включая финансовой части составила:

| Наименование участника | Общий балл по технической части | Общий балл по финансовой части | Итоговый балл |
|---|---|---|---|
| **ООО** LM IMPERIAL TORG | 82.8 | 10 | 92.8 |
| BUYUK-ORZULAR-SIRI MCHJ | 68.4 | 9.94819 | 78.34819 |

Закупочная комиссия по отбору наилучшего предложения лот № 195650 от 01.12.2022 года на приобретение Махсус кийимлар харид қилиш учун определила победителем:

OOO LM IMPERIAL TORG
304531318

и резервный исполнитель: BUYUK-ORZULAR-SIRI MCHJ (309905511)

Проголосовали

| Комиссия | Ф.И.О. | Голосование | Комментарии |
|---|---|---|---|

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Председатель комиссии** | MURATILLAYEV BATIR ABDURAZZAKOVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | ELTAYEV KULDASH XUDAYBERDIYEVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | G'AFFAROV TURG'UN RAZAQOVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | XATAMOV BAXTIYOR KUDRATOVICH | Согласен | |
| **Член комиссии** | MAMATOV MAMADALI KARSHIBAYEVICH | Согласен | |

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП

“ТАСДИҚЛАЙМАН”
Гулистон тумани Ободонлаштириш
бошқармаси бошлиғи:
____________ Б.Муратиллаев

# ЭНГ ЯХШИ ТАКЛИФЛАРНИ ТАНЛАШ БАЁННОМАСИ

“06” декабр 2022 йил Гулистон тумани

Хаъат раиси: Б.Муратиллаев Ободонлаштириш бошкармаси бошлиги

Аъзолари :
К.Элтаев Бош мухандис
Т.Гафforов бош хисобчи
М.Маматов механик
Б.Хатамов ООСБ бошлиги
А.Сайидкулов Агроном

## КУН ТАРТИБИ

1. MCHJ “LM IMPERIAL TORG" таклифларни урганиб чикиш;
2. MCHJ “BUYUK ORZULAR-SIRI” таклифларни урганиб чикиш;

Кун тартибида куйилган масала юзасидан хайат раиси Б.Муратиллаев сузга чикиб, йигилиш катнашчиларига Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 22 апрельдаги УРК-684-сонли конуннинг 7-боб 60-моддасининг талабларига мувофик Ободонлантириш ходимларига махсус кийим харид килиш учун MCHJ “LM IMPERIAL TORG" ва MCHJ “BUYUK ORZULAR-SIRI” лардан таклифлар электрон равишда олинганлигини маълум килади.

Хайат аъзолари хамда таклиф берувчиларнинг вакиллари иштирокида электрон равишда юборилган куйидаги таклифлар берилганлиги маълум булди.

| № | Обектнинг номи ва манзили | Ишларнинг бошлангич нархи | | Пудратчиларнинг таклифи | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Нархи (сўмда ) | Муддати (кун) | Пудрат ташкилоти номи | Нархи (агар ҚҚС бўлса алохида курсатилади сўмда ) | Муддати (кун) |
| 1 | Ободонлаштириш ходимларига махсус кийим харид килиш | 28350000 | 7 | MCHJ “LM IMPERIAL TORG" | 28035000 | 5 |
| | | | | MCHJ “BUYUK ORZULAR-SIRI” | 28181000 | 6 |

Хайат раиси: (Б.Муратиллаев) ушбу курсатилган таклифни хайат аъзоларига таништирди. Овозга куйиш натижасида Ободонлаштириш ходимларига махсус кийимларни харид килиш буйича, MCHJ “BUYUK ORZULAR-SIRI” махсус кийимларни тикиш ва сотишга ихтисослаштирилмаганлиги сотиш учун таклифларини бериб бажарилмаслиги ва электрон равишда юборилган таклиф хужжатлари талабга жавоб бермаганлигини инобатга олиб, хайъат аъзолари томонидан паст балларга эга булган. XK MCHJ “LM IMPERIAL TORG" нинг таклифи барча куйилган шартларга мос булганлиги сабабли, шу хусусий корхона билан 28035000 сумга шартнома тузишга карор килинди.

Харид комиссияси аъзоларида мазкур лот(лар) иштирокчилари билан афилланганлик хусусиятига эга алокалар мавжуд эмас.

Узбекистон Республикасининг “Давлат харидлари тугрисида”ги Конунининг (УРК-684- сон 22.04.2021 й) 23 моддасига кура, иштирокчи ва унинг аффилланган шахси мазкур лот(ларда) иштирок этмаяпти.

Маълумотлар stat.uz сахифаси оркали текширилди.

Ушбу 195650-сонли лот ракими буйича Гулистон тумани Ободонлаштириш бошкармаси томонидан тасдикланган энг яхши таклифларни танлаш баённомаси юзасидан хеч кандай эътироз ёки норозиликлар юзага келмади.

Овозга куйиш натижасида 5 та овоз билан МСНЈ "LM IMPERIAL TORG" голиб чикди. Юкоридагиларни инобатга олган холда хайат

КАРОР КИЛАДИ:

1. МСНЈ “LM IMPERIAL TORG" ва МСНЈ “BUYUK ORZULAR-SIRI” ташкилотларидан тушган таклифлари эътиборга олинсин.
2. Танлов голиби этиб, МСНЈ “LM IMPERIAL TORG" эълон килинсин ва ушбу ташкилот билан 28035000 сумга шартнома тузилиши маъкуллансин.

| | | |
|---|---|---|
| Хаъат раиси: | Б.Муратиллаев | Ободонлаштириш бошкармаси бошлиги |
| Аъзолари : | К.Элтаев | бош мухандис |
| | Т.Гафforов | бош хисобчи |
| | М.Маматов | механик |
| | Б.Хатамов | ООСБ бошлиги |

XalqBanki

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AKSIYADORLIK TIJORAT XALQ BANKI

JOINT-STOCK COMMERCIAL XALQ BANK OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

№ 03/78
2022 у. "03" 11

# Маълумотнома

АТ Халк банки Сирдарё вилоят филиалаи Амалиёт бўлими сизга Ушбу орқали банк мижоз **LM IMPERIAL TORG MCHJ**нмнг бизнинг банк филилаимиздаги асосий хисоб рақамида хозирги кун холатига **Картотека 2** қарздорлиги мавжут эмаслигини маълум қиламиз.

**Х/р: 20208000900706796001**

**СТИР:** 304531318

**МФО:**00759

Халк банки Сирдарё вилоят филиали
Амалиёт булими бошкарувчиси: Ш.Облакулов

Guliston shahar, Xondamir ko'chasi 3 uy, tel: +(998 78) 221-03-99, faks: +(998 78) 221-03-87
Gulistan city,Khondamir street- 3, tel: +(998 78) 221-03-99, faks: +(998 78) 221-03-87

«LM IMPERIAL TORG» МЧЖ

«LM IMPERIAL TORG» МЧЖ

Guliston sh. Abdullaev k
Tel. +99897-086-88-88

Гулистон ш. Абдуллаев куча
Тел.+99897-086-88-88

«LM IMPERIAL TORG» МЧЖ Л/счёт 20208000900706796001, АТ Халк банк Гулистон шахар, СТИР 304351318, МФО 00759

2022 йил "30" ноябр №70

Гулистон тумани
кошидаги Ободонлаштириш
бошкармасига
"LM IMPERIAL TORG "МЧЖ
рахбари А.Маткуловдан

АРИЗА

"LM IMPERIAL TORG" МЧЖ Сизга, 2022 йил 30 ноябрдаги 2211001219565О-сонли лот билан электрон савдога куйилган Махсус кийимлар харид қилиш учун махсулоларини 2022 йил 05 декабр кунига кадар Гулистон тумани кошидаги Ободонлаштириш бошкармасига Махсус кийимларни етказиб бериш хамда кафолатини берамиз. Ушбу тендерда курсатилган карупцион холатларга умуман йул куймаймиз.

"LM IMPERIAL TORG" МЧЖ
рахбари: А.Маткулов

«LM IMPERIAL TORG» МЧЖ

«LM IMPERIAL TORG» МЧЖ

Guliston sh. Abdullaev k
Tel. +99897-086-88-88

Гулистон ш. Абдуллаев куча
Тел.+99897-086-88-88

«LM IMPERIAL TORG» МЧЖ Л/счёт 20208000900706796001, АТ Халк банк Гулистон шахар, СТИР 304351318, МФО 00759

2022 йил "30"ноябр № 74

Гулистон тумани кошидаги
Ободонлаштириш
бошкармасига

"LM IMPERIAL TORG "МЧЖ
рахбари А.Маткуловдан

**М А Ъ Л У М О Т Н О М А**

"LM IMPERIAL TORG" МЧЖ Сизга, 2022 йил 30 ноябрдаги 22110012195650-сонли лот билан электрон савдога куйилган Махсус кийимлар харид махсулоларини 2022 йил 05 декабр кунига кадар Гулистон тумани кошидаги Ободонлаштириш бошкармасига Махсус кийимлар харид махсулотларини иловадаги куринишда етказиб бериш кафолатини берамиз.



"LM IMPERIAL TORG" МЧЖ рахбари: А.Маткулов

Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ қўмитаси
Сирдарё вилояти Давлат солиқ бошқармаси
Гулистон шаҳар Давлат солиқ инспекцияси
120100. Гулистон ш.. тел. (8-367) 227-80-39

---

544165-сонли

МАЪЛУМОТНОМА

Ушбу юридик шахс **«"LM IMPERIAL TORG" MCHJ»** Гулистон шаҳар давлат солиқ инспекциясида 304531318-сонли СТИР рақам билан рўйхатга олинган ҳамда Гулистон шахар ДСИда бюджет ва бюджетдан ташқари мақсадли жамғармалар олдида **24.11.2022** ҳолатига солиқ қарзи мавжуд эмас.

Ушбу маълумотнома Давлат солиқ қўмитасининг расмий сайти орқали шакллантирилган ва чоп этилган

ДИҚҚАТ!

Маълумотномани ДСҚнинг «my.soliq.uz» сайти орқали текшириб кўриш мумкин

*Мазкур маълумотнома корхона томонидан Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодексининг 34-моддасида келтирилган солиқ мажбуриятларини тўлиқ бажарилганлигини асосламайди.*

Маълумотнома берилган сана ва вақт: 24.11.2022 12:24:59

«LM IMPERIAL TORG» МЧЖ

«LM IMPERIAL TORG» МЧЖ

Guliston sh. Abdullaev k
Tel. +99897-086-88-88

Гулистон ш. Абдуллаев куча
Тел.+99897-086-88-88

«LM IMPERIAL TORG» МЧЖ Л/счёт 20208000900706796001, АТ Халк банк Гулистон шахар, СТИР 304351318, МФО 00759

2022 йил "30" ноябр № 71

Гулистон тумани
кошидаги Ободонлаштириш
бошкармасига
"LM IMPERIAL TORG "МЧЖ
рахбари А.Маткуловдан

## К А Ф О Л А Т  Х А Т И.

"LM IMPERIAL TORG " МЧЖ Сизга, 2022 йил 30 ноябрдаги 22110012195650-сонли лот билан электрон савдога куйилган Махсус кийимлар харид қилиш учун махсулоларини 2022 йил 05 декабр кунига кадар Гулистон тумани кошидаги Ободонлаштириш бошкармасига Махсус кийимларни 2022 йил 05 декабр кунига Махсус кийим махсулотлари тугатилишини сифатли бажаришни кафолат берамиз.

"LM IMPERIAL TORG" МЧЖ
рахбари: А.Маткулов